

**PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA UMUMT'ALIM FANLARNI
O'QITISHDA O'QUVCHILARDА KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH**

*Shirin energetika kolleji aniq va tabiiy fanlar kafedra mudiri
Zulfonova Nargiza Xoliqulovna*

Annotatsiya: O'qituvchi kuchli bilimga ega bo'lsa-yu, lekin uni o'quvchiga yetkazib bera olmasa, yetuk mutaxassis degan nomni qozona olmaydi. Demakki, bugungi yetishib kelayotgan yosh avlodga yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish davomida o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishlari kerakligini tushuntirib berish zarur. Zero ular buyuk kelajak quruvchi avlodni voyaga yetkazadilar. Ushbu maqolada aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda kollejlarda aniq va tabiiy fanlar darslarida innovatsion usullardan foydalangan holda o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

*Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi.
Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q.*

Sh.Mirziyoyev

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach barcha sohalar qatori ta'lismi sohasiga ham qator o'zgarishlar olib kirildi. Hozirgi kunda talab etilayotgan, kutilayotgan natijalar, o'quvchilarning ijodiy, mustaqil fikrashi, yangi g'oyalarni, innovatsiyalarni, loyihalarni ishlab chiqish bugungi kun davr talabi hisoblanadi. Til ta'limalda o'quvchining kreativ fikrlashini ta'minlash orqali yuqori saviyadagi nutqiy savodxonlik bilan bir qatorda tabiiy va aniq fanlarni oson va qulay o'zlashtirilishiga erishamiz.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "**create**" so'zidan olingan bo'lib, **yaratish** ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamirida originallik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi. Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloq qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, fizika fanida qoida va yodlab, grammatika

qidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, masala yecha olmasangiz, barchasi bekor.

"Tasavvur-bilimdan muhim" deganida **Albert Eynshteyn** aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berish lozim. Eng ajablanarli jihatni ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yari ekan.

Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan o'quv yurtidagi ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, A.Eynshteynning maktabdan haydalishi, D.Mendeleyevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

Kelajak kimning qo'lida? Kelajagimiz yoshlar qo'lida deymiz. Lekin qo'lida kelajak bo'lgan yoshlarni kim yetishtirib beradi? Albatta o'qituvchilar. Demak, kelajagimizning porloq bo'lishi avvalo o'qituvchi zimmasida ekanini anglagan holda o'z ustimizda samarali ish olib borishimiz va bilganlarimizni yosh avlodga yetkazishimiz zarur.

Akseleratsiya-lotin tilidan olingen bo'lib, tezlashish, oldinlab ketish, ilgarilash degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kecha-kunduzda bu faqat bolalar gavda o'lchamlarining jadal kattalashuvida emas, balki ularning dunyoqarashi hamda fikrlashlari ilgarilab ketishi, shuningdek erta balog'atga yetishida ham namoyon bo'ladi. Hozir zamon o'quvchisi axborot texnologiyalaridan foydalanishda ba'zi o'qituvchilardan ham o'zib ketgani hech kimga sir emas, demak o'qituvchi tub ma'noda o'quvchini buyuk kelajak sari yetaklay olishi, farovon hayotni qura oladigan shaxs sifatida shakllantira olishi, ma'nan yetuk avlodni voyaga yetkaza olishi lozim.

O'quvchilarni qanday baholash mumkin? Deylik, bir sinfda 30 ta o'quvchi bor. Ularning barchasida bilim sifati fanlar bo'yicha farq qiladi. Kimdir aniq fandan yaxshi o'zlashtirsa, kimdir tabiiy fanlarni yaxshi o'zlashtiradi. Buning sababi nimada? Albatta asosiy faktor o'qituvchi bo'lib qolaveradi. Nima uchun?

Bolada umumyetuklik daraja yuqori bo'lib, (psixologlar orqali aniqlaniladi) bilim sifati past bo'lishi mumkin, sababi bunday o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olinmaganligi va yetarli darajada bilim berilmaganligidir.

Yetuklik darajasini birinchi o'ringa qo'yish kerak, mantiqiy fikrlay bilgan bola har qanday fanni o'zlashtira oladi

Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. Professional ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun bir nechta yangi interfaol pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Mana ba'zi aniq misollar: «Klaster» metodi, «6 x 6» metodi, «Aqliy hujum» metodi, Pazl (“Bo'laklardan butunni tuz”) metodi, “BBB” metodi, “T-

sxema” metodi, “Bumerang” texnologiyasi, Zinama-zina” texnologiyasi, Venn diagrammasi, “Munozara” usuli va hakozaclar.

Mening fikrimcha ta’limda ko’plab innovatsion usullar samarali bo’lib, ayniqsa ta’limda aniq maqsad qo’yish yoki fanlararo bog’lash, aniq maqsadga erishish ko’p foydali xisoblanadi. «Maqsadli yondashuv» uslubi ta’limda o’quvchi, talabalarni ijodiy fikrlashga, fanning mazmun mohiyati va maqsadini o’rgatadi. U nafaqat o’quvbilim faoliyatini tizimlashtiradi, jadallashtiradi, balki ta’lim oluvchilarning umumiy madaniyatini yuksaltirishga ham xizmat qiladi, predmetlararo bog’lanish tufayli maqsadlar turli darajada namoyon bo’ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o’quvchilarda kreativlikni rivojlantirish uchun o’qituvchi turli xil metodlardan foydalanib dars o’tishi uchun kuchli darajada qurollangan bo’lishi, mantiq ilmidan boxabar bo’lishi shart.

Bugungi kun o’quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o’qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga kelayotgan o‘g‘il-qizlar o‘zining bir qator umumiy sifatlari bilan ajralib turadi.

Turmush tarzimiz, qiziqish va xohish-istiklarimiz global makonda qariyb o‘xshash tus olayotgan bir vaqtda kechagi o’qitish usullari bilan maqsadga erishib bo’lmaydi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo’lamiz. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin. Hamda bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o’quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadidagi ilmiy natijalarni o’rganish va nazariy ma’lumotlarni tayyorlash, o’quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda yoshlarni olimpiadalarga tayyorlash mashg‘ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Tajribalar shuni ko’rsatmoqdaki, mashg‘ulotlar davomida matematikaning amaliyotga tadbiqlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar berilishi, ularda fanga bo‘lgan qiziqishni ortishi va dunyoqarashlarini kengayishiga hamda ilmiy ishlar chop qilishlariga sabab bo’lmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz"
2. I.A.Karimov "Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch"
3. Napoleon Xill "O’yla va boy bo’l"
4. Ismatilla Isoqov, Sindorqul Ibragimovich Qulmamatov. “Informatikani o’qitishda innovatsion texnologiyalar”. Ma’ruza matnlari.

5. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida”. “Qishloq hayoti” gazetasi 03.06.05 y.
6. Умарова У.У. “Муносабатлар. Бинар муносабатлар” мавзуси бўйича маъруза ва амалий машғулотлари учун “Ажурли appa” ва “Домино” методлар //Scientific progress, 2:6 (2021), p. 982-988.
7. Умарова У.У. Мулоҳазалар устида мантиқий амаллар мавзусини ўқитишида «Кичик груптарда ишлаш» методи // Scientific progress, 2:6 (2021), p.803-809.
8. Умарова У.У. “Формулалар ва уларнинг нормал шакллари” мавзусини ўқитишида ўйинли методлар (pp. 810-817).
9. Yunusova D.I. Ta’lim texnologiyalari asosida matematik ta’limni tashkil etish. T., “Universitet”, 2005.- 131 b.